
Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov bitiruvchi yoshlarga zafarlar tiladi

Shahrimizdagi 43 ta maktabda "So'nggi qo'ng'iroq" tadbirlari bo'lib o'tdi. 2-, 6- va 9-umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'tgan tadbirlarda shahar hokimi, faxriy o'qituvchilar, ota-onalar, mahalla va hamkor tashkilotlar, shuningdek, maktabning sobiq bitiruvchilari ishtirok etdi.

Tadbir avvalida Vosiljon Nazarov tomonidan Prezidentimizning mamlakatimiz maktablarini bitiruvchi o'g'il-qizlarga yo'llagan tabrigi o'qib eshittirildi. Shundan so'ng, shahar hokimi bitiruvchi yoshlarga keyingi yo'llarida o'z o'rinlarini topishlariga umid bildirdi.

Tadbir davomida o'quv yili davomida namunali xulq va a'lo baholarga o'qib, eng yuqori reyting ko'rsatkichlariga erishgan iqtidorli bitiruvchilar va o'quvchilarga faxriy yorlig' hamda esdalik sovg'alari topshirildi. Shuningdek, maktabning iqtidorli o'quvchilari tomonidan tayyorlangan badiiy chiqishlar havola etildi. So'nggi qo'ng'iroq sadolari bilan tantanalarga yakun yasaldi.

2022-05-25 18:25:25